

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

TO‘XTAYEV ZAYNIDDIN EGAMNAZAR O‘G‘LI

**SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH ASOSIDA
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI BOSHQARISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Диссертация на соискание степени доктора философии (PhD) по
экономике содержание аннотации**

**Dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Contents of the abstract**

To‘xtayev Zayniddin Egamnazar o‘g‘li

Sifat menejmenti tizimini joriy etish asosida to‘qimachilik korxonalarini boshqarish
samaradorligini oshirish.....3

Тухтаев Зайниддин Эгамназар угли

Повышение эффективности управления текстильными предприятиями на основе
внедрения системы менеджмента качества.....27

Tukhtayev Zayniddin Egamnazar ugli

Improving the efficiency of textile enterprise management through the implementation
of a quality management system.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works57

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

TO‘XTAYEV ZAYNIDDIN EGAMNAZAR O‘G‘LI

**SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH ASOSIDA
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINI BOSHQARISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4800 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ttysi.uz) va «Ziynet» Axborot ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupov Saidvali Shukrullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Baxtiyorov Bobir Boxodirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Djurabayev Otabek Djurabayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.1.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "18" sentyabr soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjahon – 5, Tel./faks: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, Faks: (+99871) 253-036-17; e-mail: info@ttysi.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (31 raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjahon – 5, Tel./faks: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, e-mail: info@ttysi.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 – yil "05" 09 kuni tarqatildi.
(2026 – yil "05" 09 dagi 5 – raqamli reyestr bayonnomasi).



B.V. Nasimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

S.N. Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.n., dotsent

A.U. Burxanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiya)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon to'qimachilik bozorida global iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi 2020-yilda 1000,3 milliard AQSH doll. tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yildan 2028-yilgacha bo'lgan vaqt davomida 4,4 % o'sishni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.¹ Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'qimachilik korxonalari oldida turgan muhim vazifa bu raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hisoblanadi. Shuning uchun to'qimachilik korxonalari oldida turgan eng muhim birlamchi masala xalqaro standartlar darajasida mahsulot sifatini taminlash hisoblanadi.

Jahondagi to'qimachilik korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ko'p sonli to'qimachilik xususan tikuv-trikotaj mahsulotlarining keng assortimentini raqobatbardoshligini oshirish, sifat menejmentining xalqaro standartlarini korxona faoliyatiga keng joriy etishga ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu xalqaro standartlar asosida, mahsulotlarning eksport hajmini oshirish, ushbu mahsulotlar sifatiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash, yuqori bir darajada sifati kafolatlangan sifat menejmentining qat'i talablarini tadbqiq etish singari ustuvor bo'lgan yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda to'qimachilik mahsulotlarining ichki bozorda raqobatbardoshligini saqlagan holda, o'z o'rniga ega bo'lgan sifatli tayyor to'qimachilik mahsulotlari bilan jahon bozoriga kirib borishga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, 2022–2026-yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish"² lozim ekanligi qayd etilgan bo'lib, ushbu vazifalarning ijrosini samarali bajarish respublikamizdagi to'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish asosida to'qimachilik korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirishni taqazo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohatlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Prezident farmoni, 16.01.2025-yil "To'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6-son Prezident farmoni, 19.09.2025-yil "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida islohatlarni jadallashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-290-son Prezident qarori 12.01.2026-yil "Mahalliy yengil sanoat korxonalarining xalqaro yetkazib berish zanjirlarida ishtirokini kengaytirish hamda tashqi bozorlarda o'rnini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4-son Prezident farmoni, 16.02.2026-yil "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi islohotlarni ilg'or xalqaro amaliyot asosida jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-25-

¹ <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.//www.lex.uz.

son Prezident farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga bog'liqligi. Tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy, axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sifat menejmenti tizimini tadqiq etish, ularni boshqarish usullari, tomoyillari, tashkiliy-iqtisodiy maxanzimlarini o'rganish masalalari bilan xorijiy olimlardan I.Adizes, U.Teylor, A.Feygenbaum, V.Shuxart, R.Kuns, A.Tomson, R.Daft, E.Deming, P.F.Druker, K.Isikava, T.Konti, F.Kotler, M.X.Meskon, T.Piters, R.Uoterman, M.Porter, J.X.Xarrington va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.³

MDH mamlakatlaridagi to'qimachilik sanoat korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish, boshqarish usullari samaradorligi masalalari bilan G.G.Agzaldov, V.A.Dedakaev, S.T.Lapikus, V.S.Mxitrayan, I.I.CHayka, M.M.kane, B.V.Ivanov, V.N.Koreshkov, A.G.Sxirtladzlar⁴ tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda to'qimachilik sanoati korxonalari rivojlanishi, sifat menejmenti tizimini tadqiq etish, boshqarish samaradorligi masalalari bilan mahalliy olimlarimizdan, R.A.Isayev, M.U.Badalova, N.M.Maxmudov, N.Q.Yo'ldoshev, D.T.Yusupova, R.I.Nurimbetov, B.V.Nasimov, P.F.Azimova, B.O.Tursunov, Sh.N.Hayitov, A.A.Mamatov, D.I.Ro'ziyeva, G.M. Davlyatova, P.R.Ismatullayev S.Sh.Yusupov, N.X.Xalilov, N.T.Maxkamov, R.G.Madraximova, S.N.Talgatovna, J.X.Qambarov⁵ va boshqa olimlarimiz o'z tadqiqotlarini olib borgan.

³ Адизес И.Размышления о менеджменте.–М.:Манн,Иванов и Фербер,2016.–478 с.; Тэйлор Ф.У.Менеджмента. москва 1991. А.Фейгенбаум.Контроль качества продукции.–М.:Экономика, 2014.;В.Шухарт.Статистические методы.Контрольные карты шухарта издание официальное госстандарт россии.Москва.2008.Кунц Р.Управление системный и ситуационный анализ управленческих функций/ Р.Кунц,С.О.Донелл: пер.с англ.– М.:Прогресс,2001–201с.:Н.Томсон,Н.Генри,Ю.Адлер,А.Овчинников,М.Будовнич и др.//Стандарты и качество–2014–№ 2–С. 84–86.;Дафт.Р.Менеджмент.–6-изд./Пер.с англ.–СПб.:Питер,2006.–864 с.; Деминг Э.Выход из кризиса: Новая парадигма управления людьми, системами и процессами–М.:Альпина Паблишерз, 2007.–С.67.;Друкер П.Ф.Менеджмент.Вызовы XXI века/П.Ф.Друкер–М.: Манн,Иванов и Фербер,2012–256с.;Исикава К. Японские методы управления качеством/К.Исикава–М.:Экономика, 2014–С.123.;Исикава К.Японские методы управления качеством/К.Исикава–М.:Экономика,2014–С.123;Кonti Т.Качество упущенная возможность?/Т.Кonti-РИА Стандарты и качество,2007–216 с.:Мескон М.Х.Основы менеджмента:учебное пособие/М.Х.Мескон,М.Альберт,Ф.Хедоури–М.:Дело,2012–672с.:Питерс Т.,Уотерман Р. В поисках эффективного управления (опыт лучших компаний)/Под ред..Л.Евенко– М.:Прогресс, 2006–546с.:Портер М. Конкуренция/М.Портер;пер.с англ. О.Л.Пелявского [и др.]– Исправ.изд.–М.:Вильямс,2005–602с.:Харрингтон Дж.Х.Управление качества в американских корпорациях–М.:Экономика, 2010.

⁴Азгальдов Г.Г.Проблемы измерения и оценки качества продукции.–М.:«Знание»,2012.:Дедекаев В.А.Вопросы совершенствование организации комплексной системы управления качеством продукции. Дис. на канд.экон.наук.Львов,2009.:Лапикус С.Т.Экономическая эффективность повешения качества продукции, дис. на канд.экон.наук.–М., 2011.:Мхитраян В.С. Статистические методы в управлении качеством продукции.–М.:Финансы и статистика,2012.:Чайка И.И.Конкурентная борьба предприятий – это соревнование систем управления качеством. Стандарты и качество.– М.2016, № 12.Кане М.М.,Иванов Б.В.,Корешков В.Н.,Схиртладзе А.Г. Системы, метода и инструменты менежмента качество.2-е.изд.–СПб.:Питер,2012,546с.

⁵Isayev.R.A.To'qimachilik sanoatida sifat menejmenti tizimi asosida strategik boshqarishni takomillashtirish metodologiyasi.i.f.d.,DSc.dissertatsiyasi.T.:TDIU-2022.248 bet. Badalova M.U.Milliy iqtisodiyotda xalqaro ISO 9000 seriyali sifatni boshqarish tizimini joriy etish xususiyatlari.i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.–T.:TDIU-2008-yil.24bet.N.M.Maxmudov.O'zbekiston sanoati rivojlanish omillari,

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. To‘qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini korxonaga joriy etish asosida boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi quyidagilardan iborat.

to‘qimachilik korxonalari ishlab chiqarish faoliyati jarayonida boshqaruvning nazariy jihatlarini asoslash;

sifat menejmenti tizimining ilmiy asoslarini tadqiq etish;

to‘qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimi samaradorligini baholashning uslubiy masalalarini tadqiq etish;

to‘qimachilik sanoati korxonalarining rivojlanish holatini tahlil qilish;

to‘qimachilik sanoati korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirish omillarini asoslash;

sifat menejmenti tizimini korxonaga joriy etishning korxonaning iqtisodiy samaradorligiga ta‘sirini ekonometrik modellashtirish;

xalqaro sifat menejmenti tizimining rivojlangan xorij mamlakatlar tajribasini to‘qimachilik korxonalarida qo‘llash xususiyatlarini tadqiq etish;

tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarda sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

to‘qimachilik korxonalarida xalqaro sifat menejmenti tizimini joriy etish samaradorligini oshirish yo‘llarini asoslash.

tendensiyasi va muammolari. Monografiya. T.: Iqtisodiyot. 2017-yil. 376 bet. N.Q.Yo‘ldoshev. Sifat menejmenti. Darslik. Toshkent-2021. D.T.Yusupova Sifat menejmenti. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, TDIU. 2019, 277 bet. R.I.Nurimbetov, Sifat menejmenti. Darslik. “Tahririy Nashriyot” Toshkent 2023-yil. B.V.Nasimov. “Paxta-to‘qimachilik klasterlari korxonalarida ishlab chiqarish zahiralari boshqarish metodologiyasini takomillashtirish” 08.00.13 – Menajment (iqtisodiyot fanlari) iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. Toshkent–2025. Ф.П.Азимова. Тўқимачилик саноати корхоналари фаолияти самарадорлигини бошқаришни такомиллаштириш. иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент – 2022 йил. Tursunov B.O. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari. i.f.f.d.(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. Toshkent.: TDIU-2019.-24 bet. Hayitov SH.N. Iqtisodiyot va menejment darslik Toshkent-2020. 348 bet. Mamatov A.A. Ishlab chiqarish menejmenti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent Iqtisod-Moliya 2018-293 bet. Ro‘ziyeva D.I. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent.: 2022-270 bet. G.M. Davlyatova v.b. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish Farg‘ona 2022-232 bet. P.R. Ismatullayev v.b. Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish. Sanoat standart nashriyoti. Toshkent-2014. 338 bet. Yusupov S.SH. Kuchli raqobat sharoitida O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyalari. i.f.f.d., (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent: TDIU-2018. H.X. Xaliylov «Маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишда сифатни бошқариш тизимини такомиллаштириш (Андижон вилояти саноат корхоналари мисолида)». 08.00.13 – “Менежмент” иқтисослиги. И.ф.ф.д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс.–Т., 2020.–177 б.; N.T. Maxkamov Sifat menejmenti usullari asosida korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) (PhD) dissertatsiyasi. Buxoro-2024. G.R. Madraximova, To‘qimachilik sanoati tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. 08.00.03–Sanoat iqtisodiyoti Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI Toshkent – 2024. J.X. Qambarov SH.R. Ro‘ziyev B.F. Xursanaliyev. Sifat menejmenti. O‘quv qo‘llanma Toshkent.: 2022-yil. 441 bet. S.N. Talgatovna. Sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimini rivojlantirish va baholash usullarini takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) 08.00.13 – “Menejment” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) PhD dissertatsiya AVTOREFERATI Andijon – 2024.

Tadqiqot obyekti sifatida “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi to‘qimachilik korxonalarining boshqaruv jarayonlari va sifat menejmenti tizimini tashkil etish amaliyoti tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti bo‘lib to‘qimachilik korxonalari sifat menejmenti tizimi elementlari, boshqaruv mexanizmlari va ularning boshqaruv samaradorligiga ta’sir etish jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, taqqoslash, tasniflash, so‘rovnoma, iqtisodiy matematik modellashirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sifat menejmenti tizimini to‘qimachilik korxonalariga joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyoti jarayonli boshqaruv konsepsiyasini joriy etish hisobiga mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan ish vaqti sarflarining qisqarishi, nuqsonli mahsulot salmog‘ining kamayishi va resurs sig‘imining pasayishi ko‘rsatkichlari asosida kompleks integral mezonlar tizimi orqali takomillashtirilgan;

to‘qimachilik korxonalarida sifatni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ISO 9001:2015 talablari, “kayzen” va “TQM” konsepsiyalari elementlarini integratsiyalovchi sifat menejmenti tizimining adaptiv modeli ishlab chiqilgan;

tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari sifatini boshqarish va baholashning ko‘p darajali ko‘rsatkichlar tizimi ijtimoiy, funksional, estetik, ergonomik va ekspluatatsion sifat parametrlarini iyerarxik tarzda integratsiya qiluvchi uch darajali model orqali takomillashtirildi;

to‘qimachilik korxonalarida mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida tarmoq korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish qiymatining 2030-yilgacha bo‘lgan davrga prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan va ularning ishonchlilik darajasi R^2 , F-mezon, t-statistika mezonlari bilan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

to‘qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish asosida korxona boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan.

to‘qimachilik korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish bo‘yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini qo‘llash xususiyatlari asoslangan.

to‘qimachilik korxonalarida tikuv-trikotaj mahsulotlari sifatini baholash uslubini takomillashtirish taklif etilgan.

to‘qimachilik korxonalari faoliyatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlarga ko‘ra, korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirish omillari asoslangan.

to‘qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy qilish jarayonida uchraydigan muammolarni hal etish yo‘llarini asoslash.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi iqtisodchi olimlarning sifat menejmenti tizimini joriy etish, shuningdek, boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy – amaliy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish orqali olingan nazariy xulosalarning amaliyot jarayoni bilan mos kelishi, tadqiqot jarayonidagi uslubiy yondashuv va usullarning yetarli asoslanganligi, shuningdek, xorijiy mamlakatlar korxonalari va mahalliy korxonalar tajribalarining o‘zaro

umumlashtirilganligi, ma'lumotlarning "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi hisobotlaridan keng foydalanilganligi hamda tadqiqot jarayonida olingan va ilgari surilgan xulosa, takliflarning "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotimizning ilmiy amaliy ahamiyati sifat menejmenti tizimini respublikamizdagi to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatida qo'llash, mahsulot sifatini ta'minlash uchun xalqaro standartlarni qo'llashga oid takliflarning ishlab chiqilganligi, shuningdek tayyor tikuv-trikojat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tayyor mahsulot sifatini baholash tizimining takomillashtirilganligi, sifat menejmenti tizimini boshqarishning ilmiy va nazariy asoslarini ma'lum darajada boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati respublikamizdagi to'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini shakllantirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, to'qimachilik tarmog'ining istiqboldagi ko'rsatkichlarini asoslash hamda "Menejment", "Sifat menejmenti" fanlaridan amaliy dars mashg'uloti uchun keys-stadilar, ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanmalarni tuzishda ulardan manba sifatida foydalanishning mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sifat menejmenti tizimini joriy etish asosida to'qimachilik korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sifat menejmenti tizimini to'qimachilik korxonalariga joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyoti jarayonli boshqaruv konsepsiyasini joriy etish hisobiga mahsulot birligiga to'g'ri keladigan ish vaqti sarflarining qisqarishi, nuqsonli mahsulot salmog'ining kamayishi va resurs sig'imining pasayishi ko'rsatkichlari asosida kompleks integral mezonlar tizimi orqali takomillashtirish taklifi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar sifat boshqaruvi faoliyatiga joriy etilgan. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 7-oktabrdagi №12/12-345-ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "LUKBO TEKSTIL" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 326 ming AQSH doll., "BIRYUZA GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati xorijiy korxonasida 800 ming AQSH doll iqtisodiy samaraga erishildi. "CHUST TEXTILE" mas'uliyati cheklangan jamiyatida likvidlik ko'rsatkichini 20 foizga oshirishga erishildi.

to'qimachilik korxonalarida sifatni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ISO 9001:2015 talablari, "kayzen" va "TQM" konsepsiyalari elementlarini integratsiyalovchi sifat menejmenti tizimining adaptiv modeli ishlab chiqish taklifi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarning sifat boshqaruvi faoliyatiga joriy etilgan. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 7-oktabrdagi №12/12-345-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "LUKBO TEKSTIL" MCHJda nuqsonli mahsulot (brak) miqdorini 78 foizga qisqartirishga, "BIRYUZA GROUP" MCHJ xorijiy korxonasida ISO 9001, ISO 14001, GOTS standartlariga asoslangan sertifikatlar sonini 40 foizga, sifat nazorati samaradorligini 15 foizga oshirishga, "CHUST TEXTILE" xususiy korxonasida ishlab chiqarish quvvatini 20 foizga oshirishga erishildi.

tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari sifatini boshqarish va baholashning ko'p darajali ko'rsatkichlar tizimi ijtimoiy, funksional, estetik, ergonomik va ekspluatatsion sifat parametrlarini iyerarxik tarzda integratsiya qiluvchi uch darajali model orqali takomillashtirish bo'yicha taklif "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 7-oktabrdagi №12/12-345-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida "LUKBO TEXTIL" MCHJ, "BIRYUZA GROUP" MCHJ xorijiy korxonasi hamda "CHUST TEXTILE" MCHJ xususiy korxonasiga ISO standartlari joriy etilganligi, iste'molchi darajasida sifatga erishilganligi, shu bilan birga, sifatning ijtimoiy ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha ishlar amalga oshirilishi kerakligi aniqlandi.

to'qimachilik korxonalarida mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida tarmoq korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish qiymatining 2030-yilgacha bo'lgan davrga prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan va ularning ishonchlilik darajasi R^2 , F-mezon, t-statistika mezonlari bilan asoslangan taklif "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 7-oktabrdagi №12/12-345-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2030-yil "LUKBO TEKSTIL" MCHda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 92 874 420,5 ming so'm, "BIRYUZA GROUP" MCHJ xorijiy korxonasida 1 143 668 049,9 ming so'm, "CHUST TEXTILE" MCHJ xususiy korxonasida 370792847,2 ming so'mni tashkil etishi aniqlangan. Prognoz ko'rsatkichlar korxonalarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobat siyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida 5 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 152 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot ishi respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "To'qimachilik korxonalarini boshqarish tizimida sifat menejmentini qo'llash samaradorligining ilmiy-nazariy asoslari" deb

nomlangan birinchi bobida to'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimini qo'llash orqali boshqarish samaradorligini oshirish, sifat menejmenti tizimining rivojlanish jarayoni, sifat menejmenti tizimini joriy etishda to'qimachilik mahsulotlari sifatini ta'minlash omillarining asosiy jihatlari hamda to'qimachilik korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish zaruriyatining ilmiy va nazariy asoslari ochib berilgan.

Mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq etish asosida mamlakat iqtisodiyotini hozirgi rivojlanish bosqichida to'qimachilik korxonalarida bu turdagi omillarni ichki, tashqi va inson omili bilan bog'liq bo'lgan guruhlariga ajratish zarurdir. Shu sababli inson omili bugungi kunda nafaqat raqobat ustunligini balki, mahsulot sifatini ta'minlashda ham muhim o'rin egallaydi. Jumladan, xodimlarni kasbiy bilim, ko'nikma, malakalari, mahorati, tajribasi, o'z ishiga nisbatan munosabatlari mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etganligi sababli, sifatga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida baholansa, aynan ushbu ko'rsatkichlar bir vaqtni o'zida korxonada mehnat unumdorligini ortishi orqali raqobat ustunligini ham ta'minlash imkonini beradi.

Bugungi kunda iqtisodiy adabiyotda sifat kategoriyasiga nisbatan ko'p sonli va turli ilmiy qarashlar shakllangan. Shu bilan birgalikda, iste'molchilarni mahsulot sifatiga nisbatan bo'lgan qarashlari ham takomillashib borishi mahsulot sifati iqtisodiy kategoriyasiga nisbatan ilmiy qarashlarni yanada chuqurroq mazmunga ega bo'lishiga sabab bo'lgan.

Bizning fikrimizcha, sifat bu – mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi subyektlar tomonidan iste'molchi xohish ehtiyojlarining mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarda o'z aksini topishidir.

Jahon standartlariga javob beradigan to'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun to'qimachilik sanoati korxonalariga ISO 9001 seriyasidagi jahon standartlariga asoslangan sifat menejmenti tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda nafaqat korxonalar balki turli mamlakatlar hukumati tomonidan ham mahsulotlar sifatini boshqarishda turli standartlar va mahsulotga nisbatan qo'yilgan texnik-me'yoriy talablar ishlab chiqilgan bo'lib, korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot aynan ushbu talablarga mos kelgan taqdirda uni iste'mol bozorida sotishga ruxsat etiladi. Bu turdagi talablar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha davlat va tarmoq standartlariga oid bo'lgan me'yoriy hujjatlar;

mahsulot sifatini takomillashtirish, uni modernizatsiyalash bo'yicha texnik talablar;

mahsulot ishlab chiqarishning texnologik tuzilmasining xaritaviy tuzilishi;

mahsulot ishlab chiqarishning texnik-texnologik reglamenti;

mahsulotni ishlab chiqarish bosqichlarida uning sifatini nazorat qilish bo'yicha o'rnatilgan me'yorlar;

korxonaning mahsulot sifati bo'yicha qabul qilingan ichki standartlar

Xalqaro tashkilotlar tomonidan to'qimachilik mahsulotlariga nisbatan iste'molchilar talabini o'rganish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlar

natijalariga ko'ra, yildan yilga nafaqat mahsulot sifati balki uni hajmi, ya'ni miqdor ko'rsatkichlariga bo'lgan talab ham ortib bormoqda.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik korxonalarini boshqaruvi va sifat menejmenti tizimining holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Respublika to‘qimachilik korxonalarining rivojlanish holati tahlili, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, to‘qimachilik va tikuv trikotaj mahsulotlari eksporti va importi hajmi dinamikasi sifat menejmenti tizimini joriy etish bilan bog‘liqlikda tahlil qilingan.

Biz o‘z tadqiqot ishimizda tadqiqot obyekti qilib qabul qilingan korxonalarda sifat menejmenti tizimi joriy etilishining 2023-2025-yillarda korxona ish faoliyati samaradorligiga ta'sirini tahlil qilishni ham maqsadga muvofiq deb bildik (1-jadval).

To‘qimachilik korxonalariga Net Promoters Score (NPS) asosida xaridorlarning mahsulot sifatidan qoniqish darajasini baholash tizimi quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

1. Dastlabki diagnostika bosqichi – bunda korxonaning amaldagi sifat boshqaruvi va nazorat tizimi tahlil qilindi, mavjud muammolar va kamchiliklar aniqlandi.

2. Rejalashtirish bosqichi – korxonada sifat siyosati va maqsadlari ishlab chiqilgani xolda joriy etish dasturi hamda mas'ul ijrochilar belgilandi.

3. Jarayonlarni hujjatlashtirish bosqichi – korxonadagi barcha asosiy va yordamchi jarayonlar, reglamentlar, yo'riqnomalar va standart tartiblar ishlab chiqildi.

4. Xodimlarni o'qitish bosqichi – xalqaro sifat standartlari bo'yicha rahbar va mutaxassis xodimlarning malakasi oshirildi.

5. Amaliyotga joriy etish bosqichi – bunda tizim yigiruv, to'quv, bo'yash, pardozlash, tikuv va qadoqlash sexlarida amaliyotga joriy qilinib sifat ko'rsatkichlari muntazam nozorat qilindi.

6. Ichki audit va baholash bosqichi – tizimning samaradorligi ichki audit tekshiruvlari orqali tekshirildi, aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etildi.

7. Takomillashtirish bosqichi – audit natijalari va iste'molchilarning fikirlari asosida tizim doimiy ravishta takomillashtirilib borildi.

Ushbu bosqichlar sifat menejmenti tizimining to‘qimachilik korxonalari faoliyatiga izchil integratsiya qilish va uning samarali ishlashini ta'minlash imkonini berdi. Mazkur bosqichlarning izchil amalga oshirilishi natijasida korxonada sifatni boshqarishning yagona va tizimli mexanizmi shakllantirildi. Bunda sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, nazorat qilish va baholash jarayonlari muntazam yo'lga qo'yilib, ishlab chiqarishning har bir bosqichida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, sifat menejmenti tizimining joriy etilishi mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda iste'molchilar talab va ehtiyojlarini yanada to'liq qondirishga xizmat qildi. Natijada korxonaning raqobatbardoshligi oshib, xalqaro bozor talablariga mos mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur tashkiliy va boshqaruv shart-sharoitlari yaratildi.

1-jadval

Sifat menejmenti tizimini joriy etishning 2023-2025-yillarda korxonalar boshqaruvi samaradorligiga ta'siri⁶

T/r	Ko'rsatkichlar	“LUKBO TEKSTIL” MCHJ			
		2023-yil	2024-yil	2025-yil	Moliyaviy ta'siri
1	Xaridorlarning qoniqish darajasi (NPS)	60 %	71%	78%	Savdo hajmi +12 mln USD oshdi
2	Mahsulot sifati barqarorligi	15ta savdo shartnomasi	19	25 ta savdo shartnomasi	Eksport shartnomalari oshdi
3	Nuqsonli mahsulot (brak) miqdori	18%	11%	4%	500 ming dollar tejaldi
4	Eksport hajmi	9346,8 ming USD	9713,2 ming USD	105,06,4 ming USD	+1160 ming USD oshdi
5	Yangi xaridorlar soni	50	63	70	Eksport hajmi +600 ming USD oshdi
6	Ishlab chiqarish xarajatlari	73%	67%	65%	326 ming USD tejaldi
T/r	Ko'rsatkichlar	“BIRYUZA GROUP” MCHJ			
1	Logistika samaradorligi	72 %	77%	85 %	Xaridor qoniqish Darajasi +20
2	Xodimlar malakasi	9 % (xatolar)	6% (xatolar)	5 % (xatolar)	Sifat nazorati samaradorligi +15%
3	Ichki audit soni	-	2ta/yil	3 ta/yil	Jarayonlar +10%
4	Qaror qabul qilish tezligi	45 kun	37 kun	30 kun	Bozorga chiqish -0,5 %
5	Xaridorlar shikoyatlari soni	68ta/yil	55ta/yil	41ta/yil	Ishonch +15%
6	Sertifikatlar soni	-	ISO 9001	ISO 14001 GOTS	Eksport ishonchi +20
7	Resurslardan foydalanish samaradorligi	205 tonna	193 tonna	186 tonna	800 ming dollar tejash
T/r	Ko'rsatkichlar	“CHUST TEKSTIL” MCHJ			
1	Ishlab chiqarish quvvati	705 tonna	678 tonna	846 tonna	Oyiga +15% to'quv sexi xisobiga
2	Eksport narxlarining oshishi	5 USD/kg	5,7 USD/kg	6,25 USD/kg	Italiya bozorida
3	Bozor ulishi	8%	9%	12%	Polsha bozorida +2%
4	Tenderlarda ishtirok etish	1	3	6ta, 3 ta g'olib	3 mln USD (Turkiya shartnoma)
5	Ekologik standartlarga rioya qilish	-	ISO 14001	GOTS, ISO 14001	Organik mato talabi
6	Xodimlarning qoniqish darajasi	15% (ishdan ketish)	8%(ishdan ketish)	5 % (Ishdan ketish)	Ish haqi +10%
7	Moliyaviy barqarorlik	4 mln USD (sof foyda)	5,1 mln USD (sof foyda)	6 mln USD (sof foyda)	Likvidlik +20%

⁶ Korxonalar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob kitob qilingan.

“LUKBO TEKSTIL” MCHJ korxonasida sifat menejmenti tizimi joriy etilgach, o‘tkazilgan audit kuzatuvlari quyidagi natijalarni ko‘rsatadi.

“LUKBO TEKSTIL” MCHJ korxonasida sifat menejmenti tizimi joriy etilgach, o‘tkazilgan audit kuzatuvlari quyidagi natijalarni ko‘rsatadi. ISO 9001 xaridorlar fikr – mulohazalarini muntazam tahlil qilishni talab qiladi.

Korxonaga Net Promoter Score (NPS) asosida xaridorlar qoniqish darajasini baholash tizimini joriy qilindi. Natija, NPS 60 dan 78 ga, xususan +30% ga ortdi. Mazkur holat esa, eksport bozorlarida (Germaniya va Turkiya) xaridorlar ishonchini oshirdi, savdo hajmining oshishi hisobiga 2025 – yil 2023 – yilga nisbatan 81600 donaga ($1327000 - 1245400 = 81600$) ortib, qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini asos yaratdi.

Sifat nazorati jarayonlari ISO 9001ga ko‘ra standartlashtirildi, tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari tekshiruvlari muntazam o‘tkazildi. Natija mahsulotlar OEKO – TEX Standard 100 shartlariga muvofiqligi 100% ta‘minlandi, bu eksport shartnomalari sonini 15 tadan 25 taga oshirdi, o‘shirish sur‘atlari +66%ni tashkil etdi. Germaniya bozori uchun trikotaj matosi sifati barqarorligi sababli shartnoma muddati uzaytirildi.

ISO 9001 standart talablariga nomuvofiq mahsulotni aniqlash va bartaraf etish talab etiladi. Korxonada yaroqsiz mahsulotni (brakni) aniqlash uchun avtomatlashtirilgan tekshiruv tizimini joriy qilindi. Fikrimizcha, sifat menejment tizimi korxonadan nafaqat yaroqsiz mahsulotlarni aniqlash imkonini berishi, balki nomuvofiq mahsulotlar ishlab chiqarilishini oldini olishi, unga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Natija, nomuvofiq mahsulot miqdori 18% dan 4% ga kamaydi, ya‘ni 78%ga qisqardi, natijada yiliga 500 ming dollar xomashyo sarfini tejash imkoniyati yuzaga keldi. Tejamga asosan, matoni bo‘yashda rang nobarqarorligini oldini olish hisobiga erishildi, xususan tadbirdan so‘ng brak 18% dan 4 % ga tushdi.

ISO 9001 sertifikatini korxonani xalqaro bozorlarda raqobatbardosh qildi, xaridorlarning ishonchini oshirdi. Natija, 2025-yil 2023-yilga nisbatan eksport hajmi 9346,8 ming dollardan 10506,4 ming dollarga, ya‘ni +12,4% oshdi, Italiya va Polsha kabi davlatlarga yangi bozorlar ochilishiga olib keldi. Yiliga 1160 ming dollarlik trikotaj matosi eksporti boshlandi.

Xalqaro sertifikatga ega bo‘lishlik va sifatli mahsulotlar yangi shartnomalarni jalb qildi, natija xaridorlar bazasi 50 tadan 70 taga, ya‘ni +40%ga kengaydi, bu eksport daromadini 600 ming dollarga oshirdi. Italiya kiyim brendi bilan 600 ming. dollarlik shartnoma imzolandi. Jarayonli yondashuv joriy etilishi natijasida jarayonlar optimallashtirildi, energiya va xomashyo sarfi qisqardi, natija ishlab chiqarish xarajatlari 12%ga, yiliga 326 ming dollarga kamaydi.

“BIRYUZA GROUP” MCHJ xorijiy korxonasida sifat menejmenti tizimini joriy etishning audit tekshiruvlari natijasida logistika samaradorligi ortdi, ta‘minot zanjiri yaxshilandi, yetkazib berish muddatlari qisqardi. Natija, yetkazib berish vaqtidagi moslik 72% dan 85% ga oshdi, bu eksport xaridorlarining qoniqishini 20% ga ortdi.

ISO 9001ga ko‘ra, sifat boshqaruvi jarayoniga barcha xodimlar jalb etilishi talab etiladi. Xodimlar sifat menejmenti bo‘yicha o‘qitildi, yiliga 2 martadan trening o‘tkazildi. Xodimlar malakasi darajasi ortdi. Oqibat natijada, xodimlar tomonidan


yo'l qo'yilayotgan nomuvofiqlik, xatoliklar 9% dan 5% ga kamaydi, o'sish sur'atlari -56% ga teng bo'lib, sifat nazorati samaradorligi 15% oshdi. To'quv sexida nomuvofiq, brak gazlamalar miqdori 3% ga kamaydi. ISO 9001 ichki auditlar o'tkazilishini talab qiladi. Doimiy takomillashtirish uchun korxonada yiliga 3 martadan ichki auditlar o'tkazildi, kamchiliklar 85% tezkor bartaraf qilindi, jarayonlar 10%ga yaxshilandi. Xususan, sifat nazorati jarayonidagi aniqlangan xatoliklar 2 oy ichida to'liq bartaraf qilindi. ISO 9001ning joriy etilishi natijasida, hujjatlashtirilgan jarayonlar rahbarlarga qaror qabul qilish tezligini oshirish imkonini beradi. Natija, bozor talablariga moslashish vaqti 45 kundan 30 kunga qisqardi, jumladan yangi mato dizaynini bozorga chiqarish 2 oydan 1,5 oyga qisqardi.

ISO 9001 standartlari joriy etilgach, mahsulotning sifatiga bo'lgan ishonch ortadi, sifat ta'minlandi, xaridorlarning shikoyatlari soni qisqardi. Korxonaga shikoyatlarni boshqarish tizimi joriy qilindi, CRM tizimi o'rnatildi. Natija, shikoyatlar soni yiliga 68 tadan 41 taga kamaydi, xaridorlar ishonchi oshdi. Korxonaga joriy etilgan sertifikatlar soni ortdi. ISO 9001 bilan birga ISO 14001 va GOTS sertifikatlari ham olindi. Natija, korxonaning obro'si, eksport bozorlaridagi ishonch ortdi. GOTS sertifikati organik matolar eksportini 10% oshirdi. Xalqaro standartlarga asoslangan sifat menejmenti tizimining joriy etilishi hisobiga ortiqcha, harakat va ortiqcha harajatlarning oldi olinadi. Yaroqsiz mahsulotlar soni qisqaradi, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish imkoniyati yuzaga keladi, natijada resurslardan foydalanish samaradorligi ortdi. Bo'yash, rang berish jarayonini optimallashtirish hisobiga resurslar sarfi 10% ga kamaydi, yiliga 800 ming dollar tejaldi.

Tadqiqot obyektlaridan hisoblangan "CHUST TEXTILE" MCHJ korxonasiga sifat menejmenti tizimining joriy etish korxonaning ishlab chiqarish quvvati oshirish imkonini berdi. Jarayonli boshqaruvga asoslangan ISO 9001 standartlari joriy etilgach, jarayonlar samaradorligi ishlab chiqarish hajmini oshirdi. Trikotaj matosi ishlab chiqarish quvvatining 705 tonnadan 846 tonnaga ortishi, o'z navbatida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarining ham ishlab chiqarish hajmi ortishiga olib keldi. Bugungi kunda ekologiya eng muhim, dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ekologik standartlarga rioya qilish korxona uchun eksport bozorlarida ustunlik berdi. GOTS va ISO 14001 sertifikatlari olindi, xaridorlar e'tibori 25% oshdi. Organik paxta matosiga talab 15% ko'paydi.

ISO 9001 standartlarini joriy etish hisobiga xarajatlarning qisqarishi, o'z navbatida daromadni oshiradi, moliyaviy barqarorlikni ta'minladi. Korxonada sof foyda 4 mln dollardan 6 mln dollarga oshdi. Eksport daromadlarining ortishi va xarajatlarni tejash hisobiga likvidlik 20% ga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning **"To'qimachilik korxonalarida sifat menejmenti tizimi asosida boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari"** deb nomlangan uchinchi bobida xorijiy mamlakatlar tajribasini to'qimachilik korxonalarida qo'llash modeli ishlab chiqilgan bo'lib, korxonalarda sifat boshqaruvining yapon modeli, yevropa modeli va amerika modelini korxonalarga joriy etish samaradorlikni oshirish uchun xizmat qilishi asoslangan.



1-rasm. To'qimachilik korxonalari uchun adaptiv sifat menejmenti modeli⁷

⁷ Muallif ishlanmasi

“LUKBO TEKSTIL” MCHJ xorijiy korxonasida sifat boshqaruvining Yapon modelini qo‘llash orqali:

korxona mahsulotlarining yangi assortimentini ishlab chiqarishda yangi tamoyil va usullar majmuasi qo‘llaniladi.

korxonada mavjud bo‘lgan barcha strukturaviy bo‘limlarni o‘zida aks ettirgan sifat tizimi yaratiladi.

mahsulot sifatini ta‘minlash ustidan nazorat yanada ortadi.

korxona mahsulotlari sifatini yaxshilashda xodimlar sifat to‘garaklarida jamlanadi.

korxona rahbariyati sifat darajasini doimiy nazorat qilib boradi.

korxonadagi barcha ish o‘rinlarida nazoratning statistik usullari keng qo‘llaniladi.

korxonada ishlovchi xodimning ish faoliyati davomida 1 ta korxonada ishlash odati, sodiqlikni tarbiyalaydi, ishchi kuchi qo‘nimsizligining oldini oladi.

majburiy ta‘lim, umumiy va kasbiy majburiy ta‘lim darajasini doimiy oshirib borish ommoviylashadi.

Fikrimizcha, “BIRYUZA GROUP” MCHJ xorijiy korxonasida sifat boshqaruvini Yevropa modelining ijobiy jihatlarini qo‘llash orqali:

korxonadagi sifat borasidagi hamma ishlar qonun asosida olib borish darajasi muntazam ortib boradi.

korxona ishlab chiqarga mahsulot sifatini kafolatlovchi, baholovchi me‘yoriy hujjatlarning doimiy yuritilishi taminlanadi.

korxonalarning milliy standart talablari hamda sertifikatlashning qonun qoidalari doirasida uyg‘unlashuv jarayoni oson kichadi.

korxona o‘z ishlab chiqargan mahsuloti sifatini boshqarish uni sertifikatsiyalash bo‘yicha regional tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishiga erishadi.

Fikrimizcha, “CHUST TEXTILE” MCHJ korxonasida mahsulot sifatini nazorat qilishning statistik usuli Shuxart nazorat kartalarni qo‘llash orqali:

mahsulot sifatini nominal sifat ko‘rsatkichlaridan og‘ishlar o‘z vaqtida aniqlanadi;

yaroqsiz va defektli mahsulotlar paydo bo‘lishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi va xarajatlar tejaladi;

yaroqsiz va defektli mahsulotlar iste‘molchining qo‘lida paydo bo‘lish xavfini oldi olinadi;

mahsulot sifatini yuqori darajadali ta‘minlanadi.

ishchi xodimlar, direktordan qoravulgacha barchasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati bilan bog‘liq majburiyatga ega bo‘lishlari va o‘z o‘rnida vazifalarini bajarishlari zarur;

jamoat joylarida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xodimlarni rag‘batlantiruvchi yoki jazolovchi ko‘rgazmalar uchun turli ko‘rinishdagi shitlar o‘rnatilishi kerak;

barcha korxonalarda sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun sifatli xom-ashyodan foydalanish zarur. Korxona va yetkazib beruvchilar o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatilishi kerak;

mahsulot sifatiga javobgar bo'lgan menejerlar korxonada sifatning ahamiyatini tan olgan holda, sifatga korxona nuqtai nazaridan o'lchab aniqlashlari emas, balki iste'molchi nuqtai-nazaridan yondashishlari zarur.

Mahsulot sifatining kompleks ko'rsatkichi deb, uning bir necha xossa xususiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarga aytiladi. Mahsulot sifatining kompleks ko'rsatkichiga tortilgan o'rtacha qiymat ko'rinishida aniqlanishi mumkin.

$$K_o = \sum_{i=1}^n K_i Z_i$$

bu yerda,

K_o – umumiy kompleks ko'rsatkichi

K_i – mahsulotning sifat xususiyatining ko'rsatkichi.

Z_i – K_i ushbu ko'rsatkichning vazn koeffitsiyenti

Tadqiqot ishimizda yuqorida taklif etilgan uslubga asoslanib, tadqiqot obyekti qilib qabul qilingan korxonalarda ishlab chiqarilayotgan assortimentlardagi tikuv-trikotaj mahsulotlari sifatini baholadik.

2-jadval

Tadqiq qilinayotgan korxonalarning 2025-yilda tayyor tikuv-trikotaj buyumlari sifatini baholash ko'rsatkichlari⁸

Sifat ko'rsatkichlari	m_{iqo}	ASSORTIMENTLAR				
		“LUKBO TEKSTIL” MCHJ		“CHUST TEKSTIL” MCHJ	“BIRYUZA GROUP” MCHJ	
		Erkaklar kostyumi	Erkaklar ko'ylagi	O'g'il bolalar pidjaki	Ayollar kostyumi	Ayollar ko'ylagi
Istemolchi darajasida jumladan	m_{10}	0,635	0,623	0,653	0,657	0,692
Ijtimoiy	m_{110}	0,105	0,101	0,114	0,069	0,101
Funksional	m_{210}	0,115	0,126	0,010	0,105	0,116
Estetik	m_{310}	0,139	0,148	0,166	0,177	0,176
Ergonomik	m_{410}	0,142	0,123	0,132	0,166	0,162
Operatsion	m_{510}	0,134	0,125	0,131	0,140	0,137
Texnik va iqtisodiy Jumladan:	m_{20}	0,365	0,377	0,347	0,343	0,308
Standartlashtirish	m_{120}	0,108	0,127	0,125	0,102	0,101
Ishlab chiqarish qobiliyati	m_{220}	0,141	0,124	0,113	0,126	0,116
Samaradorlik	m_{320}	0,116	0,126	0,109	0,115	0,091

Turli iste'molchilar guruhi uchun, turli maqsadlardagi kiyimlar uchun va (1) formulalarga kiritilgan yuqorida ko'rib chiqilgan barcha sifat ko'rsatkichlarining normallashtirilgan vazn koeffitsiyentlari qiymatlari quyidagicha hisoblab chiqildi.

⁸ Korxonalar ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisob kitob qilingan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki "LUKBO TEKSTIL" MCHJ Erkaklar kostyumi uchun, iste'molchi darajasi quyidagicha hisoblandi.

$$0,105 + 0,115 + 0,139 + 0,142 + 0,134 = 0,635$$

Natijada erkaklar kostyumi uchun istemolchi darajasidagi ko'rsatkich $m_{10} = 0,635$ ga teng:

Texnik iqtisodiy darajadagi ko'rsatkich $m_{20} = 0,365$

$$0,108 + 0,141 + 0,116 = 0,365$$

Erkaklar kostyumi uchun mahsulotning umumiy kompleks sifat ko'rsatkichi quyidagicha:

$$K = m_{10} + m_{20}$$

$$K = 0,635 + 0,365$$

$$K = 1$$

Bu yerda ko'rsatkichlar normallashtirilgan bo'lib, ularning yig'indisi 1 ga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Erkaklar ko'ylagi uchun, iste'molchi darajasida ko'rsatkich quyidagicha:

$$0,101 + 0,126 + 0,148 + 0,123 + 0,125 = 0,623$$

Erkaklar kostyumi uchun istemolchi darajasidagi ko'rsatkich $m_{10} = 0,623$

Texnik iqtisodiy darajadagi ko'rsatkich quyidagicha

$$0,127 + 0,124 + 0,126 = 0,377$$

$$m_{20} = 0,377$$

Erkaklar ko'ylagi uchun mahsulotning umumiy kompleks sifat ko'rsatkichi quyidagicha:

$$K = m_{10} + m_{20}$$

$$K = 0,623 + 0,377$$

$$K = 1$$

Bu yerda ko'rsatkichlar normallashtirilgan bo'lib, ularning yig'indisi 1 ga teng.

"CHUST TEKSTIL" MCHJ o'g'il bolalar pikjagi uchun iste'molchi darajasidagi ko'rsatkich quyidagicha hisoblandi $m_{10} = 0,653$ ni tashkil etdi.

$$0,114 + 0,010 + 0,166 + 0,132 + 0,131 = 0,653$$

Natijada o'g'il bolalar pidchagi uchun iste'molchi darajasidagi ko'rsatkich $m_{10} = 0,653$ ni tashkil etdi.

Texnik iqtisodiy darajadagi ko'rsatkich quyidagicha

$$0,125 + 0,113 + 0,109 = 0,347$$

$$m_{20} = 0,347$$

O'g'il bolalar pikjagi uchun mahsulotning umumiy kompleks sifat ko'rsatkichi quyidagicha:

$$K = m_{10} + m_{20}$$

$$K = 0,623 + 0,377$$

$$K = 1$$

Bu yerda ko'rsatkichlar normallashtirilgan bo'lib, ularning yig'indisi 1 ga teng.

"BIRYUZA GROUP" MCHJ korxonasida ayollar kastyumi uchun iste'molchi darajasidagi ko'rsatkich quyidagicha hisoblandi.

$$0,069 + 0,105 + 0,177 + 0,166 + 0,140 = 0,657$$

Demak ayollar kastyumi uchun iste'molchi darajasidagi ko'rsatkich $m_{10} = 0,657$ ni tashkil etgan.

Texnik iqtisodiy darajadagi ko'rsatkich esa quyidagicha.

$$0,102 + 0,126 + 0,115 = 0,343$$

$$m_{20} = 0,343$$

Ayollar kastyumi uchun mahsulotning umumiy kompleks sifat ko'rsatkichi quyidagicha.

$$K = m_{10} + m_{20}$$

$$K = 0,657 + 0,343$$

$$K = 1$$

Bu yerda ko'rsatkichlar normallashtirilgan bo'lib, ularning yig'indisi 1 ga teng.

“BIRYUZA GROUP” MCHJ korxonasida ayollar ko'ylagi uchun iste'molchi darajasidagi ko'rsatkich quyidagicha hisoblandi.

$$0,101 + 0,116 + 0,176 + 0,162 + 0,137 = 0,692$$

Natijada ayollar ko'ylagi uchun iste'molchi darajasidagi ko'rsatkich $m_{10} = 0,692$ ni tashkil etdi.

Texnik iqtisodiy darajadagi ko'rsatkich esa quyidagicha.

$$0,101 + 0,116 + 0,091 = 0,308$$

$$m_{20} = 0,308$$

Ayollar ko'ylagi uchun mahsulotning umumiy kompleks sifat ko'rsatkichi quyidagicha.

$$K = m_{10} + m_{20}$$

$$K = 0,692 + 0,308$$

$$K = 1$$

Bu yerda ham ko'rsatkichlar normallashtirilgan bo'lib, ularning yig'indisi 1 ga teng.

Kompleks sifat ko'rsatkichi K , 0 dan 1 gacha normallashtirilgan bo'lib, quyidagi baholash mezonidan foydalanish maqsadga muvofiq deb qabul qilindi. Ushbu baholash mezonining matematik ko'rinishi quyidagicha:

$$0,90 < K < 1 - \text{Juda yuqori sifat}$$

$$0,80 < K < 0,90 - \text{Yuqori sifat}$$

$$0,70 < K < 0,80 - \text{Yaxshi sifat}$$

$$0,60 < K < 0,70 - \text{O'rtacha sifat}$$

$$0,50 < K < 0,60 - \text{Past sifat}$$

$$K < 0,50 - \text{Juda past sifat}$$

